



O'ZBEKISTONDA PROKURATURA TIZIMINING SHAKLLANISH TARIXI, KADRLAR MASALASI"

BUX.DU mustaqil tadqiqotchisi Shaxzoda Safoyeva

Annotatsiya: mazkur maqolada prokuratura organlarining vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlari hamda ularning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: prokuratura, vakolat, adliya, nazorat, funksiya.

Tarixdan ma'lumki, bevosita prokuratura institutining vujudga kelish jarayoni Chor Rossiyasi tomonidan Turkiston o'lkasining istilo qilinishi va o'lkani boshqarishga doir tartiblar o'rnatilishi bilan bog'liqdir. Yurtimizda prokuratura organlarining shakllanish va rivojlanib borish davrini bir necha bosqichlarga ajratishimiz mumkin.

Prokuratura faoliyatining tashkil topib, rivojlanib borishi borasidagi birinchi bosqich sifatida Chor Rossiyasining Turkiston o'lkasini bosib olgan davridan tortib to Chor Rossiyasining tugatilishigacha bo'lgan davrni ko'rsatishimiz mumkin. 1867-yilgi Turkiston o'lkasini boshqarishga oid vaqtinchalik Nizomning qabul qilinishida biz prokurorlik funksiyasining dastlabki alomatlarini ko'ramiz. Ushbu nizomga muvofiq, prokuratura mustaqil organ sifatida tashkil qilinmagan bo'lsada, prokurorlik funksiyasini olib borish general-gubernatorlarga yuklatilgan edi. Sirdaryo gubernatori, Zarafshon okrugi va Amudaryo bo'limi boshlig'i kabi mansabdor shaxslar bir vaqtning ozida 'prokuror hisoblanib, ishlarni o'z xohishiga ko'ra tugatib yuborishlari yoki ma'muriy tartib-taomillarga ko'ra hal qilishlari ham mumkin edi. 1887-yilga kelib Sirdaryo, Marg'ilon va Samarqand viloyatlarining viloyat sudlari tarkibida viloyat prokuraturalari tashkil etilgan va ularda faoliyat olib boruvchi prokurorlar adliya vaziriga bo'ysunishgan. Bu prokurorlarning asosiy vazifasi Rossiya podsholigi qonunlarining o'lkamizda ijro qilinishi ustidan nazorat qilish bo'lgan. Ana shu taxlitda Turkistonda prokuratura institutining asosi paydo



bo'la boshladi. Ikkinchi bosqichni Chor Rossiyasida inqilob sodir bo'lib, podsholik tugatilishi va Sovet davlatining vujudga kelishi hamda uning boshqaruv tizimida shakllanib, faoliyat ko'rsatgan prokuratura bilan bog'liq davr deb hisoblaymiz. Inqilob natijasida Chor Rossiyasi tugatildi va Sudlar to'g'risidagi Dekret bilan podsholikning prokuraturasi ham tugatildi. Shu bilan to'rt yildan oshiqroq vaqt mobaynida prokuratura faoliyati qayta yo'lga qo'yilmadi. Bu orada sovet davlati tuzildi va mamlakatda qonuniylik ustidan biror organ yoki mansabdor shaxs nazorat qilishi lozimligi oydinlashdi.

1922-yilga kelib esa, Turkiston avtonom sovet sotsialistik respublikasining davlat prokuraturasi haqidagi Nizom tasdiqlandi va shundan keyin markazda ham, boshqa hududlarda ham prokuratura tashkil qilina boshlandi. 1922-1924-yillar davomida Buxoro xalq sovet respublikasi va Xorazm xalq sovet respublikasida ham prokuratura tashkil qilinib, uning ish yuritishi adliya xalq nazoratining prokuratura bo'limi tomonidan amalga oshirilishi belgilandi.

Keyinchalik, 1924-yilda O'zbekiston sovet sotsialistik respublikasi vujudga kelgach, 1926- yildan to 1931-yilgacha prokuratura tizimi faoliyatini tartibga soluvchi bir nechta nizomlar qabul qilinib, ularda ko'zda tutilgan islohotlar natijasida, oxir-oqibat prokuratura bo'lim emas, balki bir vaqtning o'zida O'zbekiston SSR adliya xalq komissariati rahbarining o'rinbosari hisoblangan respublika prokurori boshchilik qiladigan organga aylandi. Bu bosqichda eng

ahamiyatli bo'lgan voqelik 1933-yil dekabrda, ya'ni SSR Ittifoqi prokuraturasi to'g'risidagi Nizom[1] tasdiqlanib, ushbu nizom bilan prokuratura adliyadan mustaqil ish olib boruvchi SSSR Prokuraturasiga aylantirilganligi hisoblanadi. Nizomda prokuror nazorati institutiga keng vakolatlar berilishi belgilab qo'yildi. 1936-yilga kelib esa ittifoq hamda avtonom respublikalar tarkibida bo'lgan barcha prokuratura va tergov organlari ham adliya xalq nazorati bo'ysunuvidan chiqarilib, SSSR prokuroriga bevosita bo'ysunadigan qilindi Prokuratura organlari faoliyatining rivojlanishiga insoniyatning boshiga katta kulfatlar solgan ikkinchi jahon urushi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Prokuratura organlarining faoliyati 1941-



yildan e'tiboran harbiylashtirildi. Ularning asosiy vazifasi harbiylashtirilgan davrdagi qonunlarning ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirish, jamoatchilikning tartibini, mehnat va davlat xizmati intizomini, harbiylar orasidagi qattiq tartib-intizomni ta'minlashdan hamda davlatning mulkini har qanday tajovuzlardan asrab-avaylash bo'lgan. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash bu davrda e'tibordan chetda qolgan masalalar sirasiga kiradi. Chunki, asosiy e'tibor urush maydonlariga: frontni askarlar bilan, qurol-yarog'lar bilan, oziq-ovqat, kiyim-kechak hamda boshqa zarur narsalar bilan ta'minlashga qaratilgan edi.

Ikkinchi jahon urushi tugagandan keyin mamlakat iqtisodiyotini tiklashga qaratilgan qonunlarning ijrosini, mehnat intizomi va davlat xizmati bilan bog'liq masalalarda asosan davlat manfaatlari ustunligini ta'minlashga qaratilgan normalar ijrosi ustidan nazorat qilish prokuratura organlarining asosiy vazifasi sifatida belgilandi. 1946-yil 19-martda SSSR Oliy Soveti prokuratura organlarining obro'sini oshirish maqsadida SSSR prokuroriga Bosh prokuror maqomini berish to'g'risidagi qonunni qabul qildi[2]. Bu bilan prokuraturaning davlat hayotida yuqori ahamiyatga ega organ ekanligi yana bir bor o'z tasdig'ini topdi. Sobiq Ittifoq rahbariyatining, qolaversa partiyaning suyangan va ishonchli yordamchisi sifatida, ularning ko'rsatmalarini qonunlardan ham ustun qo'yib bajarishini inobatga olib bu organning maqomini yanada oshirishdan avvalo o'sha rahbariyat manfaatdor edi. Shu boisdan ham prokuratura organlarining maqomini yanada rivojlantirish uchun bir qator islohotlarni amalga oshirish rejalashtirildi. Prokuraturaning rivojlanish jarayonida muhim qadamlardan biri 1955-yil 24-mayda Ittifoqda prokuror nazorati to'g'risidagi nizomning qabul qilinishi hisoblanadi. Unda davlatda qonuniylikning o'rni va unga og'ishmay amal qilinishini ta'minlashda prokuratura organlarining roli to'g'risidagi qoidalar, shuningdek prokurorlarning vazifalari, vakolatlari jinoyat va fuqarolik ish yurituvida aniqlangan qonun buzilish holatlariga prokuror ta'sir etish choralari belgilab qo'yildi. Nizomning ko'pgina qoidalari keyinchalik jinoyat va fuqarolik ish yurituvi asoslariga, axloq tuzatish qonunchiligiga kiritildi[3]. Nizomda yana shu



narsaning shartligi ham belgilandiki, unga ko‘ra, ittifoqdosh bo‘lgan va avtonom respublikalarning qonunlarini mahalliy farqlikka, mahalliy ta’sirlardan.

3. Prokuratura organining tarixi (mustaqillik yillarigacha)

RSFSRda prokuratura organlari tuzilgach, Umum Buxoro Markaziy ijroiya qo‘mitasi 1923 yil 23 noyabrda “Buxoro xalq jumhuriyatining davlat prokuraturasi” haqida Nizomni qabul qilgan. Nizomda prokuratura organlarining asosiy vazifalari belgilangan bo‘lib, u ham bo‘lsa revolyutsion qonunchilikni mustahkamlashdan iborat bo‘lgan.

Yuqoridagi Nizom qabul qilinganidan keyin Buxoro xalq jumhuriyati adliya vazirligi tarkibida qonunchilik ijrosi ustidan aniq nazoratni ta’minlovchi mahkama tashkil etilgan.

Prokuratura organlari mustaqil ravishda 1924 yildan, ya’ni Buxoro xalq jumhuriyatining SSSR tarkibiga kirishi va O‘zbekiston SSRning tuzilishi bilan ish boshlagan.

1925 yilning fevral oyida bo‘lib o‘tgan O‘zSSR Kengashining

I chaqirig‘ida O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasini tashkil etish haqida deklaratsiya qabul qilinib, uning tarkibiga sobiq Buxoro va Xorazm Respublikalari hududlari kiritilgan.

Kengashda tasdiqlangan ma’muriy bo‘linishga ko‘ra, O‘zSSR tarkibiga

7 ta viloyat, shu jumladan Zarafshon viloyati kirgan. Zarafshon viloyatining markazi eski Buxoro shahri bo‘lgan.

1924-1927 yillarda Buxoro hududida Zarafshon viloyat prokuraturasi faoliyat yuritgan bo‘lsa, 1927 yilning 1 martida Zarafshon viloyatidan alohida ma’muriy birlik sifatida Buxoro okrugi ajralib chiqib, 1927 yildan 1930 yilga qadar Buxoro okrug prokuraturasi faoliyat ko‘rsatgan.

1930 yilda Buxoro okrugining bekor qilinishi munosabati bilan

barcha shahar va rayon prokurorlari 1938 yilga qadar to‘g‘ridan-to‘g‘ri O‘zbekiston SSR prokuroriga bo‘ysinib kelganlar.



1938 yilning 15 yanvarida Buxoro viloyati tashkil topgan. Shundan so'ng, SSSR Oliy Kengashi Farmoni va O'zbekiston SSRning 1938 yil

24 martdagi 244-sonli buyrug'iga asosan Buxoro viloyat prokuraturasi tashkil etilgan.

1960 yillarda viloyat prokuraturasi mahkamasining tashkiliy tuzilmasi 10 ta bo'lim: rahbariyat – viloyat prokurori, devonxona – umumiy bo'lim, sudlarda fuqarolik ishlari ko'rilishi ustidan nazorat bo'limi, sudlarda jinoyat ishlari ko'rilishi ustidan nazorat bo'limi, tergov bo'limi, umumiy nazorat bo'limi, ozodlikdan mahrum qilish joylari ustidan nazorat bo'limi, maxfiy qism va kadrlar bo'limi, voyaga yetmaganlar bo'limi va buxgalteriya bo'limlaridan iborat bo'lgan.

Shuningdek, viloyat prokuraturasi tarkibida 9 ta tuman-shahar prokuraturalari: Buxoro shahar, Kogon shahar-tumanlararo, Buxoro Kogon, Karmana, G'ijduvon, Vobkent, Romitan, Qorako'l va Tomdi tuman prokuraturalari faoliyat olib borgan.

Keyinchalik, SSSR Bosh prokurorining 1965 yil 17 maydagi

113-sonli buyrug'i bilan Navoiy shahar prokuraturasi, 1966 yil

23 fevraldagi 45-sonli buyrug'i bilan Konimex tuman prokuraturasi va 1967 yil 9 fevraldagi 71-L-sonli buyrug'i bilan Sverdlovsk (hozirgi Jondor) tuman prokuraturasi tashkil etilgan.

1969 yilga kelib Shofirkon tuman prokuraturasi, 1974 yilda

Olot tuman prokuraturasi, 1993 yilda Qorovulbozor tuman prokuraturasi, 1994 yilda Kogon shahar-tumanlararo prokuraturasi negizida Kogon shahar va Kogon tuman prokuraturalari tashkil etildi.

Qariyb bir asrlik tarixga ega bo'lgan Buxoro viloyat prokuraturasi o'tgan davr mobaynida hududda qonuniylikni himoya qilish va huquq-tartibotni ta'minlash yo'lida xizmat kelib keldi.

Buxoro okrug prokurori H.Tuyakov (yuqoridan 2-qatorda chapdan uchinchi) prokuratura va sud xodimlari bilan birga, 18.09.1930 yil



Viloyat prokurorlari

Buxoro okrugining birinchi prokurori Hakim Tuyakov 1929-1930 yillarda faoliyat yuritgan.

1938 yildan keyin mustaqillik yillariga qadar Buxoro viloyat prokuraturasini Aleksandr Polyanskiy (1938-1942 yillar), Abdulla Sobirov (1943-1947 yillar), Mavlon Abduraxmonov (1947-1950 yillar), A.Xalmirzayev (1950-1953 yillar), Saxob Rashidov (1953-1957 yillar), M.Xalmuxammedov (1957-1963 yillar), Umarqul Usmonov (1963-1978 yillar), Oston Tursunov (1978-1983 yillar), Gennadiy Matyushov (1984-1989 yillar) va Axmad Aliyev (1990-1993 yillar) boshqarganlar.

HAKIM TUYAKOV - 1929 yilning may oyida Buxoro okrug prokurori lavozimiga tayinlanib, ushbu lavozimda okrug tugatilgunga qadar, ya'ni 1930 yilning sentabr oyiga qadar ishlagan. 1930-1939 yillar davomida G'ijduvon tuman prokurori, O'zbekiston SSR prokurorining yordamchisi, Shofirkon tuman prokurori, Termiz shahar prokurori, Urganch shahar prokurori, 1943-1944 yillarda Vobkent tuman prokurori lavozimlarida faoliyat olib borgan. Viloyat prokuraturasi faxriylari H.Tuyakovni qonuniylikni mustahkamlash borasidagi xizmatlarini alohida e'tirof etib, uni halol, adolatli, kamtarin inson sifatida tilga olishadi.

ALYEKSANDR POLYANSKIY – 1907 yilda Rossiyaning Penza viloyatida xizmatchi oilasida tug'ilgan. U o'rta maktabda 8-sinfgacha tahsil olgan. 1929-1930 yillarda harbiy xizmatda bo'lgan.

1930-1934 yillarda Qo'qon paxta tozalash zavodi va Qo'qon shahar kasaba uyushmasida ishlagan.

1934 yilda yilda prokuratura organlariga xizmatga qabul qilinib, O'zbekiston SSR prokurorining yordamchisi, Samarqand shahar prokurorining o'rinbosari, Xorazm okrug prokurori lavozimlarida faoliyat yuritgan. A.Polyanskiy 1938-1942 yillarda Buxoro viloyat prokurori lavozimida xizmat qilgan.

Arxiv hujjatlari orasida O'zbekiston SSR prokurorining 1941 yil



13 iyundagi viloyat prokurorlarining oylik maoshlarini belgilash haqidagi 466-sonli buyrug‘i nusxasi saqlanib qolgan.

Saxob Rashidov – 1921 yilda Jizzax tumanida kolxozchi oilasida tug‘ilgan. U 1939 yilda harbiy xizmatga ketib, Ikkinchi jahon urushida Leningrad shahrining himoyasi uchun janglarda faol ishtirok etgan va 1942 yilda jarohat olib, ona yurtiga qaytib kelgan. 1944 yilda Butunittifoq yuridik institutining Toshkent filialiga o‘qishga kirib, 1948 yilda tamomlagan. U prokuratura organlarida mehnat faoliyatini 1943 yildan boshlab, Jizzax tuman prokurorining yordamchisi, G‘allaorol tuman prokurori, Buxoro viloyat prokurorining o‘rinbosari, 1953-1957 yillarda Buxoro viloyat prokurori lavozimlarida samarali faoliyat olib borgan.

S.Rashidov frontdagi ishtiroki va urush yillaridagi fidokorona mehnatlari uchun orden va medallar bilan taqdirlangan.

Umarqul Usmonov – 1925 yilda Samarqand viloyatida xizmatchi oilasida tug‘ilgan. U 1941 yilda o‘rta maktabni tamomlagan. 1943 yilda frontga ketib, 1944 yilda og‘ir kasalligi sababli qaytib kelgan. 1944 yilda Butunittifoq yuridik institutining Toshkent filialiga o‘qishga kirib, institutni muvafaqqiyatli tamomlagan. U.Usmonov prokuratura organlariga ishga qabul qilingan. U 35 yil davomida prokuratura organlarida samarali mehnat qilib, 1963-1978 yillarda ketma-ket uch konstitutsion muddat davomida Buxoro viloyat prokurori lavozimida xizmat qilgan.

U.Usmonov katta hayotiy tajriba, prokurorga xos qat’iyat, talabchanlik, shogirdlariga nisbatan bo‘lgan e’tibori bilan soha rivojiga munosib hissa qo‘shgan. Markazdan turib boshqaruv davrida hududda adolat tamoyiliga tayanib qonuniyligni mustahkamlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida kasbiga sadoqati, fuqarolik pozitsiyasini ko‘rsata olgan.

Uning fidokorona mehnatlari munosib baholanib, ko‘plab faxriy yorliq va medallar bilan taqdirlangan. Unga “O‘zbekiston SSRda xizmat ko‘rsatgan yurist” faxriy unvoni berilgan.



1920 yilning sentyabrida rus armiyasining bosqinchilik harakatlari oqibatida Buxoro amiri Said amir Olimxonning Buxorodan chiqib ketishi vaqtida aravasidan tushib qolgan tillalarning izi yillar o'tib topiladi.

1968 yilning bahori. Buxoro viloyati Karmana tumani hududidan oqib o'tuvchi "Zarafshon" daryosi qirg'og'ida tozalash ishlari olib borilmoqda. Buldozer haydovchisi Norov traktor chirog'i yorug'ida yiltillagan yog'duga qiziqib, tushib qaraganda 3 dona oltin tangani topib oladi. Voqeadan xabar topgan ish yurituvchi zudlik bilan Ichki ishlar idorasiga xabar beradi.

Hodisa joyiga yetib kelgan ichki ishlar xodimlari tomonidan topilgan tangalar miqdori olib qo'yish hujjatlarida kamaytirib ko'rsatilib, hujjatlar qalbakilashtiriladi va natijada tilla tangalar o'zlashtiriladi.

Viloyat prokuraturasi tomonidan mazkur holat yuzasidan jinoyat ishi qo'zg'atilib, viloyat IIB va tuman IIBning bir qator mansabdor shaxslari qamoqqa olinib, jinoiy javobgarlikka tortilgan.

Viloyat prokurorining taqdimnomasiga asosan viloyat IIB boshlig'i K.Murodov va o'rinbosarlari hatti-harakati kompartiyaning viloyat qo'mitasi byurosida muhokama qilinib, ular partiya safidan o'chirilib, lavozimlaridan ozod etilgan.

OSTON TURSUNOV– 1932 yilda Qashqadaryo viloyatida tug'ilgan. U o'rta maktabni oltin medal bilan tamomlab, 1949 yilda Toshkent yuridik institutiga o'qishga kirgan. 1953 yilda institutni muvaffaqiyatli tamomlagan O.Tursunov prokuratura organlariga ishga qabul qilinib, Qashqadaryo viloyat prokurorining yordamchisi, Qashqadaryo viloyat prokurorining o'rinbosari, qatorasiga ikki konstitutsion muddat davomida Qashqadaryo viloyat prokurori, 7 yil Surxondaryo viloyat prokurori lavozimlarida xizmat qilgan. O.Tursunov

1978-1983 yillarda Buxoro viloyat prokurori lavozimida samarali faoliyat olib borgan.

O.Tursunov prokuratura organlarida jami 40 yil mehnat qilib,



tizim salohiyatini ko‘tarish, ko‘plab yosh xodimlarni tarbiyalashda jonbozlik ko‘rsatgan. “Hurmat belgisi” ordeni, “Shavkatli mehnati uchun” medali va boshqa ko‘plab mukofotlar bilan taqdirlangan. U “O‘zbekiston SSRda xizmat ko‘rsatgan yurist” faxriy unvoniga ham sazovor bo‘lgan.

“Sovetskaya Buxara” gazetasining 1982 yil 28 maydagi 102-sonida chop etilgan O.Tursunovning prokuraturaning 60 yilligiga bag‘ishlangan maqolasida Buxoro viloyat prokuraturasi tarixi va kadrlar salohiyatiga oid ma’lumotlar keltiriladi.

XULOSA:

Prokuratura organlari Buxoro hududida 1920-yillardan shakllanib, sovet davrida qonuniylikni ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashishda muhim rol o‘ynagan. Mustaqillikdan so‘ng esa prokuratura tizimi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari asosida qayta tashkil etilib, qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishini nazorat qiluvchi muhim davlat organiga aylandi. O‘tgan davr mobaynida ko‘plab tajribali prokurorlar faoliyat yuritib, huquq-tartibotni mustahkamlashga katta hissa qo‘shdi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. О.М. Мадалиев. Прокурор назорати муаммолари фанидан ўқув қўлланма.—Т.:ТДЮИ нашриёти, 2006. 16 б.
2. Прокурор назорати / Д.Ҳ. Хабибуллайев, Ғ.В. Ибратова ва б. — Toshkent: TDYU, 2019. 17 б
3. Рустамбаев М.Х., Тухташева У.А. Суд ва ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар: Дарслик. 2-жилдли. 2-жилд. —Т.: ТДЮИ нашриёти, 2011. — 110 б.
4. Конституция (основной закон). УЗБЕКСКОЙ СОВЕТСКОЙ СОЦИАЛИСТИЧЕСКОЙ РЕСПУБЛИКИ. “Ўзбекистан”. Ташкент-1979
5. Саидов А.Х. Истиқлол ва прокуратура ҳуқуқий давлат органлари тизимида // Ҳуқуқ. 2009 йил 3 сентябрь.



6. “Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmo